



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI HOKIMINING QARORI

**220100, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko'chasi, 29-uy, tel: (62) 223-00-42, fax: 223-00-22**

2023 - yil «19» - yanvar

20-12-0-Q/23

Xorazm viloyati hokimligi

### **Viloyatdagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-aprelda “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 102-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022-yil 30-dekabrdagi 01/26-19-1122-sonli xati hamda O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 25-moddalariga asosan

#### **Qaror qilaman:**

1. Viloyatdagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yil 1-yanvardan qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalarini 1-ilovaga;

ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlari 2-ilovaga;

moddiy madaniy meros obyektlaridan mehmonxona va umumiyligida ovqatlanish faoliyatlari tashkil qilishda ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga;

bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlar (asfaltlangan yoki betonlashtirilgan hududlar)da radio, uyali va peyjing aloqa antennalari o'rnatilganda foydalilaniladigan maydon uchun ijara haqi to'lovlarini hisoblanishi tartibi 4-ilovaga;

shaharlar va tumanlarning markaziy va serqatnov ko'chalari ro'yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi

huzuridagi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi (U. Qalandarov) ijara haqi qiymatini belgilashda **1-ilovada** ko‘rsatilgan ko‘chmas mulk uchun qo‘llaniladigan eng kam stavrakalaridan tayanch sifatida foydalansin;

davlat mulki bo‘lgan binolar va xonalarda joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijara to‘lovi “nol” stavrakada qo‘llansin;

viloyat hududidagi madaniy meros obyektlarini esa Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktabrdagi 881-sonli qarori talablari asosida ijaraga berilishini ta’minlasin.

3. Davlat mulkini balansda saqlovchilarining mansabдор shaxslari xo‘jalik yili choragida kamida bir marta, o‘zining tasarrufida bo‘lgan davlat mulkini xatlovdan o‘tkazgan holda foydalanilmayotgan davlat mulki, shuningdek, ijaraga berilayotgan mol-mulkning “tiklanish qiymati” to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Xorazm viloyati hududiy boshqarmasiga o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli taqdim etishlari uchun shaxsan javobgar ekanligi belgilansin va davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berishi, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va soni ataylab noto‘g‘ri qayd etilganligi, buning natijasi ijara to‘loving yashirilishiga olib kelganligi uchun qonun hujjatlarida tegishli javobgarlik belgilanganligi haqida ogohlantirilsin.

4. Ushbu qarorning qabul qilinishi bilan, Xorazm viloyati hokimining 2022-yil 15-yanvardagi 12-12-0-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan - deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror “Xorazm haqiqati” va “Xorezmskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi boshlig‘i M.Achilov zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimi vazifasini  
bajaruvchi**



**J.Raximov**

Xorazm viloyat hokimining  
2023 yil 19 yanvardagi  
20-12-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Xorazm viloyatida davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda 1 kv.metr  
uchun QQS hisobga olingan holda qo‘llaniladigan ijara to‘loving eng kam stavkalari  
(iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo‘yicha)**

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2023-yilda 1 kv.metr maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari	
		Viloyat markazi Urganch shahri	Shahar va tumanlar
<b>Ishlab chiqarish</b>			
1.	Yoqilg‘i ishlab chiqarish	11 900	8 700
2.	Kimyoiy ishlab chiqarish (o‘g‘it mahsulotlari)	11 900	8 700
3.	Neft-kimyo sanoati	11 900	8 700
4.	Mashinasozlik va asboboszlik sanoati	11 900	8 700
5.	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
6.	Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi	9 700	7 200
7.	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	11 900	7 200
8.	Sanitariya va gaz uskunalari, mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
9.	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	11 900	8 700
10.	Mashina va uskunalarni ta’mirlash	11 900	8 700
11.	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
12.	Ichimliklar ishlab chiqarish	11 900	8 700
13.	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
14.	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
15.	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	37 700	28 300
<b>Qurilish sanoati</b>			
16.	Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik	9 700	7 200
17.	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	35 900	26 600
18.	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	63 000	37 300
19.	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	11 900	8 700
20.	Shlakoblok ishlab chiqarish	11 600	8 700
21.	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	37 700	28 300
22.	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	26 700	20 050
<b>O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati</b>			
23.	Yog‘och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	11 900	8 700
24.	Yog‘ochni qayta ishlash sanoati	11 900	8 700
25.	Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
<b>Yengil sanoat</b>			
26.	To‘qimachilik sanoati	11 900	8 700
27.	Tikuvchilik sanoati	11 900	8 700
28.	Charm, mo‘yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
29.	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	11 900	8 700
<b>Oziq-ovqat sanoati</b>			
30.	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go‘sht, yog‘-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	11 900	8 700
31.	Go‘sht mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
32.	Sut mahsulotlari sanoati	23 300	17 400
33.	Baliq mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
34.	Tegirmonchilik sanoati	11 900	8 700
35.	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	9 700	7 200

36.	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
37.	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
<b>Sanoatning boshqa tarmoqlari</b>			
38.	Tibbiyot sanoati	11 900	8 700
39.	Poligrafiya sanoati	29 200	25 000
40.	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoiviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	14 600	10 600
<b>Qishloq xo'jaligi</b>			
41.	O'simlikshunoslik 1 hektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100
42.	Issiqxona xo'jaligi	9 000	8 000
43.	Chorvachilik va parrandachilik	5 700	4 300
44.	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 hektar uchun	4 798 000	3 559 100
45.	Asalarichilik 1 hektar yer maydoni uchun	3 119 000	2 313 600
46.	Veterinariya xizmatlari	11 900	8 700
47.	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	11 900	8 700
48.	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 hektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100
<b>Transport va aloqa</b>			
49.	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	11 900	8 700
50.	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 000	2 400
51.	Avtomobilarni yuvish	38 500	25 100
52.	Avtomobilarga yonilg'i quyish (benzin, dizel)	38 500	32 400
53.	Avtomobilarga yonilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalar)	46 800	35 100
54.	Elektromobilarni quvvatlash shoxobchasi	20 400	15 300
55.	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	21 620	16 200
56.	Pochta aloqasi	11 900	8 700
57.	Kuryerlik aloqasi	24 000	17 700
58.	Elektr-simli aloqa	24 000	17 700
59.	Radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	100 800	74 800
<b>Savdo va umumiyligi ovqatlanish</b>			
60.	Ulgurji savdo	33 600	25 000
61.	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalgaga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	86 300	63 900
62.	Chakana savdo	33 600	25 000
63.	Umumiy ovqatlanish	33 600	25 000
64.	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	52 600	36 100
65.	Kitob do'konlari	4 700	3 600
66.	Lombardlar	43 400	32 200
<b>Xizmat ko'rsatish</b>			
67.	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraiga berish joylari	33 600	25 000
68.	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)	33 600	25 000
69.	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	50 400	37 500
70.	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlар	33 600	25 000
71.	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	33 600	25 000
72.	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	60 000	44 300
73.	Mehmonxona xo'jaligi	38 400	28 400
74.	Umumiy yashash joylari	29 900	21 700
75.	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	19 320	14 260

76.	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	28 900	21 700
77.	Hammomlar	57 800	42 800
78.	Saunalar va basseynlar	115 200	85 500
79.	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	19 300	14 200
<b>Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot</b>			
80.	Sog'liqni saqlash	24 000	17 700
81.	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya)	44 200	33 200
82.	Sayyoqlik va dam olishni tashkil etish	24 000	17 700
83.	Fitobar	16 600	12 300
84.	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	38 400	28 400
85.	Jismoniy tarbiya va sport	11 900	8 700
86.	Dorixonalar	19 300	14 200
87.	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	40 400	22 500
88.	Ijtimoiy-dorixonalar	17 100	11 500
<b>Ta'lim</b>			
89.	Oliy va o'rta-maxsus ta'limda ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	19 320	14 200
90.	O'quv kurslarini tashkil etish	39 600	29 700
91.	Ishchilar va xizmatchilarini tayyorlash hamda malakasini oshirish	15 065	11 615
92.	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	9 700	7 245
93.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida umumiyligi ovqatlanish	23 400	17 500
94.	Umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida umumiyligi ovqatlanish	11 900	8 700
95.	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 500	6 600
96.	Madaniyat va san'at	33 600	25 000
97.	Ko'rgazmalar	25 900	20 100
98.	Madaniyat va dam olish bog'lari	24 000	17 700
99.	Botanika bog'lari va zooparklar	24 000	17 700
100.	Televideniylar va radioeshittirishlar redaksiyalari	24 000	17 700
101.	Kinostudiylar, ovoz yozish studiyalari	38 400	28 405
102.	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	14 600	10 600
103.	Avtomaktablar	21 300	12 600
<b>Moliya-kredit faoliyati</b>			
104.	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	33 600	25 000
105.	Auditorlik faoliyati	33 600	23 400
106.	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	33 600	25 000
107.	Bank faoliyati	33 600	25 000
<b>Faoliyatning boshqa turlari</b>			
108.	Sug'urta va notarial xizmatlar	33 600	25 000
109.	Sud va yuridik xizmat muassasalari	28 900	21 700
110.	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	28 900	21 700
111.	Jamoatchilik birlashmalar	9 700	7 000
112.	Omborxonalar	33 600	25 000
113.	Davlat tashkilotlariga ofis	14 600	10 600
114.	Xususiy tashkilotlarga ofis	52 600	39 100
115.	Arxiv xizmati	14 600	8 900
116.	Tahririyat va nashriyotlar	19 300	14 200
117.	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	19 300	14 200
118.	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	19 300	14 200

119.	Yengil avtomashinalar va boshqa turdag'i transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	38 400	28 400
120.	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	29 200	21 900
121.	Laboratoriyalar	24 000	17 700
122.	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	96 400	71 400
123.	Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	52 600	39 100
124.	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shahobchalari	46 100	34 200
125.	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va h.k.)	28 400	21 300
126.	Aviakassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	52 600	39 100
127.	Bankomatlar	480 800	356 600
128.	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	33 600	21 700

### Izoh:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.11.2012-yildagi 02/1-74сонли topshirig'iga asosan yopiq harbiy shaharchalar, harbiy qismlar va muassasalar hududida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining savdo boshqarmasi tarkibiy bo'linmalari uchun davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining "nol" stavkasi qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2017-yildagi "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi 834-sonli qaroriga muvofiq, davlat mulki, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki obyektlari O'zbekiston Yoshlar ittifoqi a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga O'zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko'p bo'lмаган muddatga ijara to'loving "nol" stavkasi asosida beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2017-yildagi 14/1-1959-sonli topshirig'iga asosan 2018-yildan boshlab Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan Olimpiya o'yinlari g'oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to'loving "nol" stavkasi asosida ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2018-yildagi 609-20-sonli topshirig'iga asosan kelgusida Mudofaa vazirligi tomonidan vazirlik tizimidagi o'z faoliyatini iqtisodiy mustaqillik, o'zini o'zi ta'minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradigan davlat unitar korxonalariga, shuningdek vazirlikning boshqa tarkibiy bo'linmalariga binolarni, inshootlarni, joylarni, asbob-ukunalarni, mebellarni va boshqa mol-mulkni ijara shartnomasi asosida vaqtinchalik foydalanimayotgan davlat mulki binolari va xonalaridan bepul foydalaniishi belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017-yildagi "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3393-sonli qarorining 7-bandiga asosan, "Hunarmand" uyushmasining viloyat boshqarmalari, tuman va shaharlar bo'limlari foydalanimayotgan davlat mulki binolari va xonalaridan bepul foydalaniishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.04.2017-yildagi "Sog'lijni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2863-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq chora-tadbirlar dasturining 7-bandida Sog'lijni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga davlat mulkidan foydalanganliklari uchun ijara to'lovarining 20 foizga chegirilgan holda hisoblanishi belgilangan.

Davlat mulki ijarasidan tushadigan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019-yildagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5630-sonli Farmoniga binoan taqsimlanadi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududi (ichkarisi)da joylashgan obyektlarni (balansda saqllovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari va ta’lim oluvchilar uchun xizmat ko‘rsatadigan oshxona, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqa faoliyatlar bo‘yicha) ijara haqi hisoblashda yozgi ta’til davri uchun oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida 2 oy va umumiy o‘rta ta’lim maktablari 3 oy muddatga ijara to‘lovlari chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbusi bilan ijara haqi hisoblanishi mumkin.

Xorazm viloyati hokimligi muassisligida tashkil etilgan “Xorazm haqiqati” va “Xorezmskaya pravda” gazetalari birlashgan tahririyatiga viloyat hokimligi balansidagi Urganch shahar Al-Xorazmiy ko‘chasi 23-uyda joylashgan binoda ijara to‘lovining “nol” stavkasi asosida joylashtiriladi.

Xorazm viloyati Yangiariq tumani Gulobod mahallasida joylashgan “Odas Enerji CA” MCHJga ajratilgan yer maydoniga 2023-yilda ijara stavkasi oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llamagan holda, 1 kv.metr maydon uchun 8700 so‘m qilib belgilansin.

Xorazm viloyat hokimining  
2023 yil 19 yanvardagi  
20-12-0-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**Ijara to‘lovini (ijara to‘loving tayanch stavkasini)  
hisoblash tartibi va qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar**

Ijara haqini hisoblashda ijara haqining tayanch stavkasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Ts = Es * Kz * (Kk + Kx + Ko)$$

**bunda:**

**Ts** - bir yilga 1 kv.metr uchun ijara haqining tayanch stavkasi;

**Es** - 1-ilovaga muvofiq ijaraga olingan obyektning faoliyat turiga ko‘ra bir yil uchun 1 kv.metr maydonning hisoblangan eng kam stavkasi.

**Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz):**

T/r.	Viloyatning shahar va tumanlari nomlari	<b>Hududiy zonalar koeffitsiyentlari</b>	
		<b>1-zona</b>	<b>2-zona</b>
		<b>Shahar, tuman markazlari</b>	<b>Qishloq hududlari</b>
1.	Urganch shahri	2,5	X
2.	Xiva shahri	2,5	1,5
3.	Bog‘ot tumani	2,0	1,5
4.	Gurlan tumani	2,0	1,5
5.	Qo‘shko‘pir tumani	2,0	1,5
6.	Urganch tumani	2,0	1,5
7.	Hazorasp tumani	2,0	1,5
8.	Xonqa tumani	2,0	1,5
9.	Xiva tumani	2,0	1,5
10.	Shovot tumani	2,0	1,5
11.	Yangiariq tumani	2,0	1,5
12.	Yangibozor tumani	2,0	1,5
13.	Tuproqqa‘l’ tumani	2,0	1,5

**Binoning qurilishiga ko‘ra qo‘llaniladigan koeffitsiyent turi (Kk):**

- alohida turgan bino - 2,0 koeffitsiyent;
- bino ichidagi alohida xona - 1,8 koeffitsiyent;
- binoning ustki qismi, cherdak, mansard - 1,5 koeffitsiyent;
- binoga taqab qurilgan bino hamda bostirma - 1,3 koeffitsiyent;
- yarim yerto‘la, yerto‘la - 1,0 koeffitsiyent;
- betonlashtirilgan (asfaltlangan, bruschatka) inshootlar - 0,8 koeffitsiyent;
- reklama vositalari uchun bino va inshootlarning fasad qismi - 0,5 koeffitsiyent.

**Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh):**

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘lklari mavjud bo‘lganda - 1,0 koeffitsiyent.

**Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko):**

- ijaraga berilgan obyekt asosiy qatnov yo‘llari bo‘yida, serqatnov joylarda joylashgan bo‘lsa - 1,2 koeffitsiyent;
- ijaraga berilgan obyekt ikkinchi darajali qatnov yo‘llari bo‘yida joylashgan bo‘lsa - 1,0 koeffitsiyent;
- radio, uyali va peyjing aloqa antennalari o‘rnatilganda -

1,0 koeffitsiyent.

Xorazm viloyat hokimining  
2023 yil 19 yanvardagi  
20-12-0-Q/23-son qaroriga  
3-ilova

**Moddiy-madaniy meros obyektlari bo‘lgan bino va  
inshootlarda mehmonxona va umumiyligida ovqatlanish shoxobchalarini  
tashkil qilishda ijara to‘lovi (ijara to‘lovining tayanch stavkasi)ni  
hisoblash tartibi va qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar**

Ijara haqini hisoblashda ijara haqining tayanch stavkasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Ts = Es * Kz * (Kk + Kx + Ko)$$

**bunda:**

**Ts** - bir yilga 1 kv. metr uchun ijara haqining tayanch stavkasi;

**Es** - 1-ilovaga muvofiq ijaraga olingan obyektning faoliyat turiga ko‘ra bir yil uchun 1 kv. metr maydonning hisoblangan eng kam stavkasi.

**Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz) 2-ilovada keltirilgan.**

**Binoning qurilishiga ko‘ra qo‘llaniladigan koeffitsiyent turi (Kk):**

- alohida turgan bino - 1,5 koeffitsiyent;
- bino ichidagi alohida xona - 1,1 koeffitsiyent;
- binoning ustki qismi, cherdak, mansard - 0,8 koeffitsiyent;
- binoga taqab qurilgan bino hamda bostirma - 0,8 koeffitsiyent;
- yarim yerto‘la, yerto‘la - 0,7 koeffitsiyent;
- betonlashtirilgan (asfaltlangan, bruschatka) inshootlar - 0,6 koeffitsiyent;

**Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh):**

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lganda - 0,5 koeffitsiyent.

**Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko):**

- ijaraga berilgan obyekt asosiy qatnov yo‘llari bo‘yida, serqatnov joylarda joylashgan bo‘lsa - 0,6 koeffitsiyent;
- ijaraga berilgan obyekt ikkinchi darajali qatnov yo‘llari bo‘yida joylashgan bo‘lsa - 0,5 koeffitsiyent.

Xorazm viloyat hokimining  
2023 yil 19 yanvardagi  
20-12-0-Q/23-son qaroriga  
4-ilova

**Radio, uyali va peyjing aloqa antennalari (texnik uskunalar) o‘rnatilganda foydalilaniladigan maydon uchun ijara haqi to‘lovlari hisoblanishi tartibi**

**1. Bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, bolaxona (shuningdek, davlat mulki bo‘lgan inshootlarning yuqori qismi) qismlarida o‘rnatilganda:**

$$Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).$$

Ts - bir yilga 1 kv. metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es - bir yilga 1 kv. metr uchun eng kam stavka.

Kz - hududiy zona koeffitsienti.

Kq - 1,5

Kh - 0

Ko - 1

**2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlarga o‘rnatilganda:**

$$Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).$$

Ts - bir yilga 1 kv. metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es - bir yilga 1 kv. metr uchun eng kam stavka (umumiyl ijara maydoni tortqich qoziqlarining umumiyl perimetri bo‘yicha hisoblanadi)

Kz - hududiy zona koeffitsiyenti.

Kq - 0

Kh - 1

Ko - 1

**3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalar o‘rnatilganda:**

$$Ts = Es * Kz * (Kq+Kh+Ko).$$

Ts - bir yilga 1 kv. metr uchun ijara to‘lovi tayanch stavkasi.

Es - bir yilga 1 kv. metr uchun eng kam stavka.

Kz - hududiy zona koeffitsiyenti.

Kq - 1,8

Kh - 0

Ko - 1

Xorazm viloyat hokimining  
2023 yil 19 yanvardagi  
20-12-0-Q/23-son qaroriga  
5-ilova

## Xorazm viloyati shahar va tumanlarining markaziy va serqatnov ko‘chalari ro‘yxati

T/r.	Shahar va tumanlardagi ko‘chalar nomlari
<b><i>Urganch shahri</i></b>	
1.	Urganch shahri Al-Xorazmiy ko‘chasi
2.	Urganch shahri Xonqa ko‘chasi
3.	Urganch shahri Islom Karimov shoh ko‘chasi (Ulug‘bek, Yangi Urganch, Al-Beruniy ko‘chalari)
4.	Urganch shahri Abulg‘ozzi Bahodirxon ko‘chasi
5.	Urganch shahri Gurlan ko‘chasi
6.	Urganch shahri Tinchlik ko‘chasi
7.	Urganch shahri Yoshlik ko‘chasi
8.	Urganch shahri Sanoatchilar ko‘chasi
9.	Urganch shahri Yangiariq ko‘chasi
10.	Urganch shahri Shovot ko‘chasi
11.	Urganch shahri Jayhun ko‘chasi
12.	Urganch shahri Pahlavon Mahmud ko‘chasi
13.	Urganch shahri Amudaryo ko‘chasi
14.	Urganch shahri Maxtumquli ko‘chasi
15.	Urganch shahri Amir Temur ko‘chasi
16.	Urganch shahri Baynalmilalchilar ko‘chasi
17.	Urganch shahri Ma’rifatchilar ko‘chasi
18.	Urganch shahri Navbahor ko‘chasi
19.	Urganch shahri Navro‘z ko‘chasi
20.	Urganch shahri Sayot ko‘chasi
21.	Urganch shahri G‘ofur G‘ulom ko‘chasi
22.	Urganch shahri Sheroziy ko‘chasi
23.	Urganch shahri Najmiddin Kubro ko‘chasi
24.	Urganch shahri Toshkent ko‘chasi
25.	Urganch shahri Istiqlol ko‘chasi
26.	Urganch shahri Xiva ko‘chasi
<b><i>Xiva shahri</i></b>	
1.	Xiva shahri Amir Temur ko‘chasi
2.	Xiva shahri Najmiddin Kubro ko‘chasi
3.	Xiva shahri El obod ko‘chasi
4.	Xiva shahri Feruz ko‘chasi
5.	Xiva shahri Mustaqillik ko‘chasi
6.	Xiva shahri Sog‘lom avlod ko‘chasi
7.	Xiva shahri Laxutiy ko‘chasi
8.	Xiva shahri Koshona ko‘chasi
9.	Xiva shahri “Ichon qal‘a” hududidagi ko‘chalar
10.	Xiva shahri Buyuk yo‘l ko‘chasi
<b><i>Bog‘ot tumani</i></b>	
1.	Bog‘ot shaharchasi O‘zbekiston ko‘chasi
2.	Bog‘ot shaharchasi Feruz ko‘chasi

3.	Bog‘ot shaharchasi Navro‘z ko‘chasi
<b><i>Gurlan tumani</i></b>	
1.	Gurlan shaharchasi Mustaqillik ko‘chasi
2.	Gurlan shaharchasi Pahlavon Mahmud ko‘chasi
3.	Gurlan shaharchasi Bobur ko‘chasi
4.	Gurlan shaharchasi Ziroatchilar ko‘chasi
5.	Gurlan shaharchasi Mang‘it ko‘chasi
6.	Gurlan shaharchasi Qatortol ko‘chasi
7.	Gurlan shaharchasi Muqimiy ko‘chasi
8.	Gurlan shaharchasi Usmon Nosir ko‘chasi
<b><i>Qo‘shko‘pir tumani</i></b>	
1.	Qo‘shko‘pir shaharchasi Mustaqillik ko‘chasi
2.	Qo‘shko‘pir shaharchasi Beruniy ko‘chasi
3.	Qo‘shko‘pir shaharchasi Az-Zamaxshariy ko‘chasi
4.	Qo‘shko‘pir shaharchasi Sharof Rashidov ko‘chasi
<b><i>Urganch tumani</i></b>	
1.	Urganch tumani Mustaqillik ko‘chasi
2.	Urganch tumani Tinchlik ko‘chasi
3.	Urganch tumani Muqimiy ko‘chasi
4.	Urganch tumani Ibn - Sino ko‘chasi
5.	Urganch tumani Jayhun ko‘chasi
6.	Urganch tumani Iftixor ko‘chasi
<b><i>Hazorasp tumani</i></b>	
1.	Hazorasp shaharchasi G‘ofur G‘ulom ko‘chasi
2.	Hazorasp shaharchasi Ravnaq ko‘chasi
3.	Hazorasp shaharchasi Alisher Navoiy ko‘chasi
<b><i>Tuproqqal‘a tumani</i></b>	
1.	Pitnak shaharchasi Hazorasp ko‘chasi
2.	Pitnak shaharchasi Xorazm ko‘chasi
3.	Pitnak shaharchasi Ibn Sino ko‘chasi
4.	Pitnak shaharchasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi
<b><i>Xonqa tumani</i></b>	
1.	Xonqa shaharchasi Al-Xorazmiy ko‘chasi
2.	Xonqa shaharchasi Xalqlar do‘sligi ko‘chasi
3.	Xonqa shaharchasi Nurli osmon ko‘chasi
4.	Xonqa shaharchasi O‘lmas meros ko‘chasi
5.	Xonqa shaharchasi Oq saroy ko‘chasi
6.	Xonqa shaharchasi Nafosat ko‘chasi
7.	Xonqa shaharchasi Imorat ko‘chasi
8.	Xonqa shaharchasi Andalib ko‘chasi
<b><i>Shovot tumani</i></b>	
1.	Shovot shaharchasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi
2.	Shovot shaharchasi Az-Zamaxshariy ko‘chasi
3.	Shovot shaharchasi Turkiston ko‘chasi
<b><i>Yangiariq tumani</i></b>	
1.	Yangiariq shaharchasi Mustaqillik ko‘chasi
2.	Yangiariq shaharchasi Al-Xorazmiy ko‘chasi
3.	Yangiariq shaharchasi Jaloliddin Manguberdi ko‘chasi
4.	Yangiariq shaharchasi Urganch ko‘chasi
5.	Yangiariq shaharchasi Kichik halqa yo‘li

<b><i>Yangibozor tumani</i></b>	
1.	Yangibozor shaharchasi Urganch-Gurlan yo‘li
2.	Yangibozor shaharchasi Jaloliddin Manguberdi ko‘chasi
3.	Yangibozor shaharchasi Sohil bo‘yi ko‘chasi
4.	Yangibozor shaharchasi Navbahor ko‘chasi
5.	Yangibozor shaharchasi Mash’al ko‘chasi
6.	Yangibozor shaharchasi Fidokor ko‘chasi

<b><i>Xiva tumani</i></b>	
1.	Xiva tumani markazi Urganch – Xiva yo‘li
2.	Xiva tumani markazi Tinchlik ko‘chasi
3.	Xiva tuman markazi Pillakor ko‘chasi